XALQ DEPUTATLARI TO‘RTKO‘L TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 27 - may VI-63-64-13-190-K/23 To‘rtko‘l tuman hokimligi

To‘rtko‘l tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom hamda tuman hokimining 2023-yil 7-apreldagi 31-13-190-F/23-sonli farmoyishiga asosan, Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi To‘rtko‘l tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniga ko‘ra tuman hududlarining umumiy perimetri 1434228 metr, umumiy maydoni 738721,75 gektar ekanligi aniqlandi

Jumladan:

To‘rtko‘l shahri (tuman bo‘ysunuvidagi shahar) ning umumiy peremetri 32308 metr, umumiy maydoni 2160,83 gektar;

Nurliyo‘l shaharchasi umumiy peremetri 5911 metr, umumiy maydoni 101,54 gektar;

Amirobod shaharchasi umumiy peremetri 8680 metr, umumiy maydoni 167,11 gektar;

Tozabog‘ shaharchasi umumiy peremetri 10475 metr, umumiy maydoni 175,84 gektar;

Turkmanko‘li shaharchasi umumiy peremetri 13497 metr, umumiy maydoni 327,08 gektar;

Miskin shaharchasi umumiy peremetri 28722 metr, umumiy maydoni

1590,13 gektar;

Tozabog‘yop ovuli umumiy peremetri 40772 metr, umumiy maydoni 4603,85 gektar;

Ullibog‘ ovuli umumiy peremetri 30920 metr, umumiy maydoni 2660,06 gektar;

Ko‘na To‘rtko‘l ovuli umumiy peremetri 46878 metr, umumiy maydoni 4432,62 gektar;

Sho‘raxon ovuli umumiy peremetri 57786 metr, umumiy maydoni 4592,30 gektar;

O‘zbekiston ovuli umumiy peremetri 53482 metr, umumiy maydoni 5722,02 gektar;

Oqboshli ovuli umumiy peremetri 31055 metr, umumiy maydoni 3219,08 gektar;

Oqqamish ovuli umumiy peremetri 115479 metr, umumiy maydoni 11918,48 gektar;

Paxtachi ovuli umumiy peremetri 23314 metr, umumiy maydoni 1837,28 gektar;

Otayurt ovuli umumiy peremetri 23144 metr, umumiy maydoni 1896,19 gektar;

Kaltaminor ovuli umumiy peremetri 88314 metr, umumiy maydoni 18171,89 gektar;

Yonboshqal’a ovuli umumiy peremetri 53167 metr, umumiy maydoni 11929,70 gektar;

Ko‘kcha ovuli umumiy peremetri 96389 metr, umumiy maydoni 14500,38 gektar;

Paxtaobod ovuli umumiy peremetri 39972 metr, umumiy maydoni 8773,98 gektar;

Qumboskan ovuli umumiy peremetri 78198 metr, umumiy maydoni 13500,87 gektar;

Otauba ovuli umumiy peremetri 555765 metr, umumiy maydoni 626440,52

gektar ekanligi ma’lum bo‘ldi.

To‘rtko‘l tumani ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilashda To‘rtko‘l shahri, shaharcha va ovulning chegaralari ajratib ko‘rsatilgan holda tavsiflandi. Chegaralar chizig‘ining yozuvli matni tavsifida joyning tegishli topografik elementlari bilan bog‘lanib, chegara nuqtalari o‘rtasidagi masofasi va chegara chizig‘ining qutb yo‘nalishlari aks ettirildi. Chegara chizig‘ining burilish nuqtalari koordinatalari ko‘rsatildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Davlat kadastrlari palatasining To‘rtko‘l tumani filiali rahbarining axborotini tinglab, taqdim etilgan ma’lumotlar fikr va mulohazalar hamda taklif va tavsiyalarni atroflicha o‘rganib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. Davlat Kadastrlari palatasining To‘rtko‘l tumani filiali rahbari S.Ibodullayevning To‘rtko‘l tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risidagi axboroti hamda Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan To‘rtko‘l tumanidagi shaharcha va ovullarning, shuningdek tumanga bo‘ysunuvchi To‘rtko‘l shahar chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan tuman hokimligida tuzilgan ishchi guruh tarkibining 2023-yil 28-apreldagi 01-05/7-04/37/1-sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. To‘rtko‘l tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniy natijalari to‘g‘risidagi ma’lumot 1-ilovaga, ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash bo‘yicha kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ushbu qarorning tasdiqlash Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesidan so‘ralsin.

4. Tuman hokimligining Axborot xizmati rahbari M.Bekchanovaga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish va ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish vazifasi yuklansin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman

Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi **R.Shamuratov**


Xalq deputatlari To‘rtko‘l tuman
Kengashining
2023 yil 27 maydagi
VI-63-64-13-190-K/23-son qaroriga
1-ilova

To‘rtko‘l tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniy natijalari to‘g‘risida

T/r	Ma’muriy-hududiy birliklarning nomi	Umumiy perimetr (metr)	Umumiy maydoni (gektar)
1.	To‘rtko‘l shahri (tuman bo‘ysunuvidagi shahar)	32308	2160,83
2.	Nurliyo‘l shaharchasi	5911	101,54
3.	Amirobod shaharchasi	8680	167,11
4.	Tozabog‘ shaharchasi	10475	175,84
5.	Turkmanko‘li shaharchasi	13497	327,08
6.	Miskin shaharchasi	28722	1590,13
7.	Tozabog‘yop ovuli	40772	4603,85
8.	Ullibog‘ ovuli	30920	2660,06
9.	Ko‘na To‘rtko‘l ovuli	46878	4432,62
10.	Sho‘raxon ovuli	57786	4592,30
11.	O‘zbekiston ovuli	53482	5722,02
12.	Oqboshli ovuli	31055	3219,08
13.	Oqqamish ovuli	115479	11918,48
14.	Paxtachi ovuli	23314	1837,28
15.	Otayurt ovuli	23144	1896,19
16.	Kaltaminor ovuli	88314	18171,89
17.	Yonboshqal’a ovuli	53167	11929,70
18.	Ko‘kcha ovuli	96389	14500,38
19.	Paxtaobod ovuli	39972	8773,98
20.	Qumboskan ovuli	78198	13500,87
21.	Otauba ovuli	555765	626440,52
Jami		**1434228**	**738721,75**

Xalq deputatlari To‘rtko‘l tuman
Kengashining
2023 yil 27 maydagi
VI-63-64-13-190-K/23-son qaroriga
2-ilova

To‘rtko‘l tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash chegaralarining kartografik chizmasi


Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumanining shahar, shaharcha va ovullarining chegaralarini belgilash ishlari SXEMASI
B
Ellikqal'a tumani
Ko'kcha ovuli
Yonbashqal'a ovuli
Paxtaobod ovuli
Qumboskan ovuli
Kaltaminor ovuli
Tozabog'yop ovuli
Ullibog' ovuli
Nurliyo'l shaharchasi
To'rtko'l shahri
Amirobod shaharchasi
Ko'kna Tortko'l ovuli
Tozabog' shaharchasi
To'rkmanko'l shaharchasi
O'zbekiston ovuli
Otayurt ovuli
Paxtachi ovuli
Sho'raxon ovuli
Oqboshli ovuli
Oqqamish ovuli
Miskin shaharchasi
Otauba ovuli
A
Navoiy viloyati
D
Buxoro viloyati
E
Xorazm viloyati
Chegaradosh yerlar izohnomasi
A dan B gacha Ellikqal'a tumani yerlari
B dan D gacha Navoiy viloyati yerlari
D dan E gacha Buxoro viloyati yerlari
E dan A gacha Xorazm viloyati yerlari
Shartli belgilar
Viloyatlar chegarasi
Tumanlar chegarasi
Shaharlar va shaharchalar chegarasi
Qishloqlar (Ovullar) chegaralari